



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 16 aprel, № 73 (8696)

Seshanba


Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



MARKAZIY OSIYO — KO'RFAZ ARAB DAVLATLARI:

HAMKORLIK ALOQALARINING MUHIM BOSQICHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-aprel kuni "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" strategik muloqoti tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvi doirasida mamlakatimizga kelgan Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov, Qatar Davlati Bosh vaziri, tashqi ishlar vaziri shayx Muhammad bin Abdulrahmon Ol Soniy boshchiligidagi delegatsiya, Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Faysal bin Farxon Ol Saud, O'mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaydiy boshchiligidagi delegatsiya, Kuvayt Davlati tashqi ishlar vaziri Abdulla al-Yahyo boshchiligidagi delegatsiya, Bahrayn Podshohligi tashqi ishlar vaziri Abdullatif bin Rashid al-Zayaniy boshchiligidagi delegatsiya, Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiya, Ozarbayjon Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jayxun Bayramov va Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi Jasim bin Muhammad al-Budayviyni qabul qildi.



Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov suhbat avvalida davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va chuqurlashgan strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro tovar ayirboshlash o'sayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. "Shovot — Toshovuz" savdo zonasi tashkil etilmoqda. Sanoat kooperatsiyasi,

Transafg'on temir yo'lini qurish loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar, shu jumladan, Yaqin Sharqdagi vaziyatning jiddiy keskinlashayotgani yuzasidan ham fikr almashildi.

Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Faysal bin Farxon Ol Saud O'zbekiston yetakchisiga Podshoh Salmon bin Abdulaziz Ol Saud va Valiahd, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Saudiya Arabistoni o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni va keng ko'lami sheriklikni oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Bank sohasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim kabi ustuvor yo'nalishlarda yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirish taklif qilindi.

O'zaro muloqotlarni va hamkorlikning institutsional mexanizmlarini faollashtirish — siyosiy maslahatlashuvlar, Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari, biznes forumlari va ko'rgazmalarni muntazam o'tkazib borish zarurligi ta'kidlandi.

Mintaqaviy, shu jumladan, 2011-yilgi Ashxobod kelishuvlari doirasidagi hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Kuvayt Davlati tashqi ishlar vaziri Abdulla al-Yahyo O'zbekiston yetakchisiga Kuvayt Amiri shayx Mish'al

Savdo-iqtisodiy hamkorlik, bank-moliya, avtomobil va temir yo'llari qurilishi, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va boshqa ustuvor yo'nalishlardagi dastur va loyihalarni ilgari surish uchun katta salohiyat va keng imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi.

Shu maqsadda joriy yilda qo'shma Hukumatlararo qo'mitaning ilk yig'ilishini o'tkazish hamda O'zbekiston va Bahrayn yetakchi kompaniyalari vakillari ishtirokida Ishbilarmonlar kengashini ta'sis etish rejalashtirilgan.

Xalqaro kun tartibi, shu jumladan, xavfsizlikka zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston yetakchisi Bahrayn tashqi ishlar vazirini qutlug' yoshi bilan muborakkob etib, unga mustahkam


rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlari va ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish hamda hamkorlikning 10 ta yangi yo'nalishi bo'yicha istiqbolli loyihalar portfelini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Muntazam va samarali muloqotlar tufayli ikki tomonlama munosabatlar sifat jihatidan yangi darajaga chiqqani, amaliy mazmun bilan boyigani mamnuniyat ila qayd etildi.

O'tgan yilda tovar ayirboshlash 27 foizga oshdi. Avtomobilsozlik, elektrotexnika, energetika, to'qimachilik



energetika, transport va logistika, qishloq xo'jaligi sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlik davom etmoqda.

Hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlar kengaymoqda. Joriy yilda O'zbekistonda shoir Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300-yilligi munosabati bilan qator tadbirlar o'tkazildi.

Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik doirasida ko'p qirrali sheriklikning yangi kun tartibini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Qatar Bosh vaziri Muhammad Ol Soniy O'zbekiston yetakchisiga Qatar Amiri Tamim bin Hamad Ol Soniyning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki tomonlama hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalarida yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari siyosiy muloqot jadal tus olgani, o'zaro savdo va investitsiyalar hajmi faol oshayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Qatarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Madaniy-gumanitar tadbirlar o'tkazilmoqda. Oktyabr oyida O'zbekistonda Qatar madaniyati haftaligi bo'lib o'tadi.

Qo'shma investitsiya loyihalarini ilgari surish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini tezroq yaratish muhimligi qayd etildi.

Bugungi kunda turli darajalarda faol muloqotlar va delegatsiyalarning o'zaro tashriflari davom etmoqda. O'zaro savdo hajmi, qo'shma korxonalar va aviaqatnovlar soni oshib bormoqda.

"Yashil" energetika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, IT va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalari boshlangan.

Bo'lajak tadbirlar, shu jumladan, 2025-yilda o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" muloqotining ikkinchi sammitiga puxta tayyorgarlik ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, mintaqaviy kun tartibidagi boshqa masalalar, xususan, Afg'onistondagi vaziyat va Falastin muammosini tinch yo'l bilan hal etish yuzasidan fikr almashildi.

O'mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaydiy davlatimiz rahbariga O'mon Sultoni Haysam bin Toriq Ol Saidning samimiy salomi va tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalardagi salohiyatni samarali ro'yobga chiqarish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qo'shma investitsiya kompaniyasining loyihalar portfelini kengaytirish muhim ekani qayd etildi.

as-Sabohning samimiy salomi va tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi konstruktiv siyosiy muloqotni davom ettirish, savdo-iqtisodiy, moliya-investitsiyaviy va gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro tashriflarni faollashtirish, madaniy va turizm almashinuvlariga oid dasturlarni amalga oshirish, yetakchi kompaniyalar ishtirokida, shu jumladan, Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot fondi bilan yaqin hamkorlik doirasida hamda Kuvayt investitsiya agentligi bilan samarali sheriklikni yo'lga qo'yish orqali ustuvor tarmoqlardagi investitsiya loyihalarini ilgari surish zarurligi qayd etildi.

Yaqin fursatda ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlar, qo'shma Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig'ilishi va biznes forumini o'tkazish muhim ekani ta'kidlandi.

Mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Bahrayn Podshohligi tashqi ishlar vaziri Abdullatif bin Rashid al-Zayaniy davlatimiz rahbariga Podshoh Hamad bin Iso Al-Xalifaning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Bahrayn o'rtasidagi ko'p qirrali sheriklikni yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Siyosiy muloqotni faollashtirish hamda siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmini tez fursatda ishga tushirish muhimligi qayd etildi.

sog'liq va katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad Ol Maktum, vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va Abu-Dabi amirligi Valiahdi Shayx Holid Ol Nahayonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ustuvor yo'nalishlardagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

O'zbekiston va Amirliklar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning bugungi yuksak darajasi katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror oshib bormoqda. O'zbekistonda Amirliklar sarmoyasi ishtirokida 300 dan ziyod korxonalar faoliyat yuritmoqda. Qo'shma loyihalar portfeli 4 milliard dollardan oshgan.

"Yashil" energetika, metallurgiya, qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiya kabi tarmoqlarda istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Transafg'on temir yo'lining texnik loyihasini tayyorlash va qurilishini boshlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasi ham ko'rib chiqildi.

Ozarbayjon Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jayxun Bayramov uchrashuv avvalida davlatimiz

va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Qo'shma investitsiya fondi o'z faoliyatini boshladi.

Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuv va tadbirlar rejasi ham ko'rib chiqildi.

Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi Jasim bin Muhammad al-Budayviy bilan uchrashuvda O'zbekiston va Kengash o'rtasidagi konstruktiv muloqotni yanada rivojlantirish, hamkorlikni mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari mintaqalar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning bugungi sur'atidan mamnunligini bildirdi hamda Toshkent shahrida o'tgan tashqi ishlar vazirlari ikkinchi uchrashuvining samarali yakunlarini yuqori baholadi.

O'tgan yili Jidda shahrida o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ko'rfaz arab davlatlari birinchi sammitida erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi muhokama qilindi.

O'zbekiston tomonidan investitsiya, savdo, yuqori texnologiyalar, turizm va boshqa yo'nalishlarda ilgari surilgan tashabbus va takliflarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

2025-yilda Samarqand shahrida o'tadigan ikkinchi sammit kun tartibini tayyorlash bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

Shukuh

MA'NAVIY
YUKSALISH
CHAROG'BONLARI

Madaniyat va san'atning inson kamoloti, qalbi hamda ruhiy olami boyishida o'rnini beqiyos. Shu ma'noda, mazkur sohada faoliyat yuritayotgan, o'zining ijodi, asarlari, so'zi bilan xalqimiz qalbidan joy egallayotgan madaniyat va san'at xodimlarini ma'naviy yuksalishning charog'bonlari, desak, yangilishmaymiz.

Poytaxtimizda 15-aprel — O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali tadbirda ham bu yana bir bor qayd etildi. Bayramona ruhda o'tgan kechada san'atning turli yo'nalishlarida ijod qilayotgan hamyurtlarimiz, soha vakillari jam bo'ldi.

Tadbir avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov so'zga chiqib, yangilanish jarayonlari jadal kechayotgan mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasi rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini ta'kidladi.

Qayd etish joizki, O'zbekistonda madaniy xizmat ko'rsatish ko'lamini tobora kengaytirish va yuksaltirish, milliy san'atimizni jahonga targ'ib etish, iste'dodli yoshlarni ko'llab-quvvatlash, ijodkor ziyolilar uchun zarur barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratish borasida yangi tashabbuslar hayotga joriy qilinmoqda. Bugungi kunda madaniyat sohasida 40 mingdan ortiq xodimlar samarali faoliyat yuritib, tizim rivojiga munosib hissa qo'shib kelmokda.

Tadbir yakunida madaniyat va san'at ahlining bir guruhi, shuningdek, "Madaniyat vaziri kubogi uchun" an'anaviy sport musobaqasining g'olib va sovrindorlari taqdirlandi. San'at ustalari, ijrochi yoshlar ishtirokidagi yorqin va betakror konsert dasturi davraga o'zgacha shukuh bag'ishladi.



Teatr

Ulug' o'zbek adibi Abdulla Qodiriy "teatr turmushimizda yetishmaydigan va ortiqcha jihatlarini aks ettiradigan bir oinadur. Ish shundag' ekan, biz ham o'z teatrlarimizni ko'rganimizda turmushimizning aksini ko'rmagimiz kerakdir", deganida teatr zamon va xalq bilan hamnafas yashashi kerakligini nazarda tutgan edi. Yillar o'tgani sayin bu fikrlar yanada dolzarblik kasb etdi...

O'ziga xos ibratxona bo'lgan teatrdan murakkab ijodiy jarayon kechadi. Mashaqqatli izlanishu intilishlar mahsuli o'laroq yangi asar dunyo yuzini ko'radi. Ko'lg'a kiritilayotgan yutuqlar bilan birga, sohada muammolar ham talaygina.

Amin bo'lgan, o'zim ko'p kuzatgan muammolardan eng kattasi — teatrlarda repertuar va tomoshabin masalasi. Tomoshabinlarning teatrga kelishi poytaxtdagi teatrlar uchun muammo emasligini bilamiz. Chunki Toshkent har kuni minglab mehmonlarga mezbonlik qiladi. Ular orasida madaniy hordiq chiqarishga ehtiyojmandlar kam emas. Ko'ngilochar maskanlar qatori yangi spektakl ko'rish maqsadida teatrlarga ham borishadi. Ammo viloyat teatrlaridagi holat haqida bunday deyish qiyin.

Viloyatdagi teatr namoyishlarida tomosha zali, asosan, talabalar hisobiga to'ldiriladi. Biz bu holatni, oz bo'lsa-da, o'zgartirish, ya'ni teatrimizga tomoshabinlar tashrifini ko'paytirish maqsadida o'tgan yili bir tajribani amalga oshirdik. Teatr rahbariyati "Mahalla" xayriya jamoat fondi, "Nuroniylar" jam'aramasining viloyat bo'limlari bilan shartnomalar tuzdi. Endi ular haftaning ma'lum kunlarida teatrimizga tomoshabinlar

olib kelishadi. Ular uchun teatrimiz repertuaridagi eng sara asarlarni namoyish etib kelyapmiz. Bu, o'z navbatida, buxorolik yurtdoshlarimizni madaniy hordiq chiqarishiga, teatr san'atidan bahramand bo'lishiga, ma'naviy ozuqa olishlariga katta imkoniyatlar yaratyapti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Agar hozir "Qani, oxirgi bir oyda qaysi teatrga bordingiz, qanday yangi kitob o'qidingiz?" deb so'rasam, o'ylaymanki, aksariyat rahbarlar xijolat bo'lib qolishi mumkin. Holbuki, rahbar-yetakchilar ijtimoiy dunyoqarash, madaniy saviya bo'yicha boshqalarga o'rnak bo'lishlari kerak", degan so'zlari har bir rahbar zimmasiga jiddiy vazifani yuklaydi. Davlatimiz rahbari tomonidan davlat organlari va muassasalarida har oyning bir kuni "Teatr kuni" deb e'lon qilinishi ijtimoiy-siyosiy muhitga samarali ta'sir etadi. Zero, sahnaada ko'rib ta'sirlangan muammolarga hayotda yechim topish oson kechadi. Buning uchun, o'z navbatida, dramaturglarimiz yurtimizning bugungi tashvishlariga, sinovlariga ko'proq murojaat qilib, badiiy jihatdan baquvvat asarlar yozib berishsa qaniydi?

Yodingizda bo'lsa, prezidentlik faoliyatiga kirishgan dastlabki yillardayoq Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda bugungi kunda ijod ahli oldida turgan vazifalarga to'xtalib, shunday degan edi: "Zamonamizning haqiqiy qahramonlari bo'lgan mana shunday quruvchi va muhandislar, dala zahmatkashlari haqida, jonkuyar muallim va

MADANIYAT VA SAN'AT RIVOJIGA
E'TIBORNING YANA
BIR YORQIN IFODASI

2021-yil 7-iyunda imzolangan Qonunga muvofiq, 5-aprel — O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni sifatida nishonlab kelinmoqda. Ushbu sananing alohida bayram sifatida o'tkazilishi yuksak e'tibor ifodasi o'laroq soha vakillari qalbiga quvonch, iftixor baxsh etayotir, ayni paytda zimmalariga bunday g'amxo'rlikka munosiblik mas'uliyatini ham yuklaydi. Ijod qilishga, marralarni baland olishga ruhlantirmoqda.

Tolib HOJIYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, aktyor:

— San'at odamni ezgulikka undaydi, ba'zida bu so'z "saboq", "o'rnak" kabi so'zlar bilan ma'nodosh emasmikin, deb o'ylab qolasiz. To'g'ri-da, axir hech bir soha san'atchalik inson qalbiga tez kirib bormaydi, ta'sir o'tkazmaydi. U insonni o'zi istagan yo'lga burishi, xohlagan manzilga olib borishi mumkin. Shunday ekan, san'atdan faqatgina to'g'ri yo'lga, xalqimizga naf keltirish maqsadida foydalanish davlatimizning ham, zamonning ham, qalbimizning ham xohishi, niyatidir.

Muhammadjon XO'JAYEV,
dublyaj aktyori va rejissyor:

— Ezgulik va insonparvarlik tamoyillari asosida ilgari surilayotgan g'oyalar natijasida jamiyatimizda bugungi kunga shukronalik, ertangi yorug' kunlarga ishonch hissi tobora kuchayayotgani ayni haqiqat. Bu yo'nalishdagi islohotlar jarayonida adabiyot, teatr, kino, musiqa, umuman, san'atning barcha turini rivojlantirish, soha namoyandalari faoliyatini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilayotgani muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni har yili ko'tarinki ruhda nishonlanayotgani hamkasblarim qatori kaminani ham behad quvontiradi. Bu — yurtimizda soha rivojiga berilayotgan e'tiborning yorqin namunasidir. Sohada yildan-yilga ijobiy o'zgarishlar bo'layotgani, kundan-kunga sharoitlar yaxshilanayotganiga guvoh bo'lib turibmiz. Bu kuchimizga kuch qo'shmoqda. Butun salohiyatimizni ishga solib,

mehnatdan qochmay, yaxshi asarlarni xalqimizga taqdim etishga harakat qilaypmiz.

Kasb bayramimizni intiqlik bilan kutamiz. Chunki bu ayyomda bayramlar bayramlarga, qutlovlar qutlovlariga ulanadi. O'tgan yilgi bayramlarda bir qancha shogirdlarim Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy etilgan "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu ularning, ozmi-ko'pmi, mehnatlari e'tirofi bo'ldi, ayni chog'da yangi maqsadlar sari ilhomlantirmoqda.

davlatlar qatorida, bu nafaqat soha xodimlari, balki har birimizning yutug'imiz.

Dublyaj sohasi keyingi yillarda ancha oqsab qolgan, sohaga yangi ovozlari kelmay qo'ygan edi. Kinofestivallar va turli tadbirlarda dublyaj sohasi uchun nominatsiyalar qo'yilishi, alohida e'tibor berilishini orzu qilardik. Shukur, bugun bu istaklarimiz birma-bir amalga oshmoqda. Yurtimizda Madaniyat va san'at xodimlari kuni keng nishonlanishi esa har birimizga ilhom, ijodiy kuch-quvvat bag'ishlayotganiga shubha yo'q.

Umida TESHABOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
direktori:

— Moziyga nazar tashlasak, mazkur sananing nishonlanishi 1935-yilning 15-aprelida Vashington shahrida 21 davlat rahbarlari tomonidan dunyo tarixida ilk bor Xalqaro badiiy va ilmiy muassasalar va tarixiy yodgorliklarni himoya qilish to'g'risidagi xalqaro shartnomaning imzolaniishi bilan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Ayni paytda dunyoning ko'plab mamlakatlarida ushbu sana "Xalqaro madaniyat kuni" sifatida nishonlab kelinadi. Xususan, 2008-yildan buyon Italiya, Ispaniya, Rossiya, Argentina, Meksika, Kuba, Latviya, Litva kabi davlatlarda 15-aprel — Xalqaro madaniyat kuni o'laroq bayram qilinadi.

Prezidentimizning 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida 15-aprel sanasini "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi taklif ayni muddao bo'ldi. Bu soha vakillari hayotida o'chmas iz qoldirdi, desak, xato emas. Binobarin, o'tgan yillar mobaynida mazkur sana madaniyat va san'at xodimlarining eng sevimli bayramiga aylanib ulgurdi.

Ochig'ini aytganda, yurtimizda madaniyat, ma'rifati, san'at sohalaridagi islohotlarga har kun, har jahhada shohid bo'lyapmiz. Masalan, yaqinda Yangi Toshkent qurilishiga tamal toshi qo'yilganida u yerda birinchilardan bo'lib zamonaviy va shinam kutubxona bunyod qilinishi qayd etildi. Biz kutubxona loyihasi haqida ehsitganimizda ich-ichimizdan g'urur tuydik. Zotan, kutubxona qurilishi xalqimiz tafakkuri va ilmi oshishiga xizmat qiladi. Bilimli hamda dono xalq esa taraqqiyot sari ildam odimlayveradi.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

EZGULIK VA IBRAT MASKANI

Davlatimiz rahbari raisligida bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifati kengashi yig'ilishida kelgusida adabiyot, madaniyat va san'at sohasida qilinadigan ishlar, vazifalar belgilab olindi. Ijod ahli uchun, albatta, davlat ahamiyati darajasidagi e'tiborning o'zi avvallari ko'zga tashlanmagan hol. Belgilangan vazifalardan kelib chiqib teatr sohasida ham ibratli tadbirlar, yaxshi ishlar boshlanib ketdi. O'zim bunga o'n yildan beri ishlab kelayotgan Buxoro viloyati musiqali drama teatri misolida guvoh bo'lib turibman.

shifokorlarimiz, jasur harbiylarimiz, navqiron yoshlarimiz erishayotgan yutuq va marralar haqida sizlar yozmasangiz, Vatanimiz tarixining badiiy solnomasini sizlar yaratmasangiz, kim yaratadi? Agar biz iste'dod va mahoratimizni shu muqaddas zamin, shu oliyjanob xalqimiz uchun safarbar etmasak, hazrat Navoiy aytmoqchi, bu hunarni asrab nima qilamiz, qayerga opketamiz uni?"

O'sha uchrashuvda davlatimiz rahbari O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhordek talabchan adib ham bir paytlar Mirzacho'lga borib, ikki-uch oy chaylada yashab, buyurtma bilan "Shohi so'zana" degan go'zal asar yozganini, u dunyoning ko'plab mamlakatlarida sahnaga qo'yilib, shuhrat qozonganini eslatib o'tgandi.

Mana, oradan yillar o'tib bormoqda. Ammo teatrlarimizda hanuz bugungi kunni bor bo'y-basti bilan aks ettiradigan asar anqoning urug'i. Yuqori saviyadagi spektaklni sahnalashtirishga qiynalasan. Abdulla Qahhordek ijodkorlar yana chiqarmikan, deb orzu qilasan. Tomoshabin qalbini larzaga soladigan original asar topilavermagach, jahon dramaturgiyasiga, klassikaga murojaat qilaverasan.

Repertuariga yangiliklar olib kirlimasa, tomoshabinni jalb etadigan asarlarni topib sahnalashtirishga harakat qilinmasa teatr o'ladi. Shundan kelib chiqib, biz klassik asarlarga murojaat etdik. 2023-yil boshida taniqli rejissyor Valixon Umarov Toshkentdan taklif qilinib, u tomonidan V. Shekspiring "Richard III" spektakli sahnalashtirildi. Ushbu asarda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi hayotiy lavhalar asosida ochib beriladi. Shu bois u tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Umrning o'tkinchiligi, inson bu dunyoda o'zidan faqat egzu nom qoldirishi, yaxshilik etagidan tutishi zarurligi to'g'risida o'yashga, mushohada yuritishga undaydi.

O'tgan yili 21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni arafasida teatrimiz jamoasi shoir va dramaturg Zikrilla Ne'mat qalamiga mansub "Abdurauf Fitrat" spektaklini sahnalashtirdi.

Asarda yurt istiqloli uchun kurashgan, xalqimiz madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan shoir va nosir, dramaturg va publiksist, adabiyotshunos, jamoat arbobi Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi qalanga olingan. Bilamizki, o'tgan asrning 20 — 30-yillarida yashab ijod qilgan ko'plab yurt fidoyilarning hayoti fojiali yakun topgan. Muallif ana shunday ijodkorlarning old qatorida turgan, asli buxorolik bo'lgan millat oyдини Fitrat obrazini o'ziga xos yo'sinda yaratish orqali istiqlol, hurriyat tushunchalarining naqadar bebaho qadriyat ekanini ko'rsatib bera oldi. Spektakl iqtidorli rejissyor Laziz Navro'zov tomonidan sahnalashtirildi.

Asar premyerasining ona tilimiz bayrami arafasida bo'lib o'tishida ham majoziy ma'no bor, deyish mumkin. Chunki qomusiy bilim egasi Abdurauf Fitrat o'zbek tilini asrab-ardooqlash, uning imkoniyatlarini ko'rsatib berish borasida ham fidoyilik qilgan. Olimning o'zbek tili grammatikasiga oid darsliklari 1925 — 1930-yillar oralig'ida besh bor nashr etilgan. Aynan tilshunoslik va adabiyotshunoslik borasidagi chuqur ilmiy tadqiqotlari uchun u o'zbek olimlari orasida birinchilardan bo'lib professor unvoniga sazovor bo'lgan. Spektakl tomoshabinlar, xususan, ziyolilar hamda yoshlar tomonidan iliq kutib olindi. Teatr jamoasi repertuari esa bir ajoyib sahna asari bilan boyidi.

Yil so'ngida yangi bir ijodiy loyihaga qo'l urdik. Teatrga taniqli gruzin rejissyori Kaxa Gogidze taklif etilib, u tomonidan G'afur G'ulomning mashhur "Shum bola" qissasi sahnalashtirildi. Bunda ko'zlasdan asosiy maqsadimiz teatrimizda tomoshabinni o'ziga jalb qiladigan yangi asar yaratish edi. Yana xalqimiz uchun qadrlil bo'lgan bu asar o'z tomoshabinini topishidan umidvor

Joriy yil ham biz uchun ijodiy tomondan sernahsul bo'lishiga, tomoshabinlarga ma'qul tushadigan asarlar yaratishga harakat qilaypmiz. Teatrimizda yaratilayotgan har bir asar tomoshabinlar qalbidan joy olishi, pirovardida teatr san'atining mavqeyini saqlab qolishga erishish — asosiy maqsadimiz. Biz mana shu egzu muddao yo'lida astoydil mehnat qilaypmiz. Umidimiz shuki, mehnatlarimiz, albatta, o'z natijasini beradi.

Mohigul NAZAROVA,
Buxoro viloyati musiqali drama teatri adabiy bo'lim mudiri.



AFC U23
ASIAN CUP™
QATAR 2024

OLIMPIADA
SARI
NAVBATDAGI
MUSOBAQA

Kecha Qatar davlatida 23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida navbatdagi Osiyo kubogi bahslari boshlandi. Joriy yil 3-maygacha davom etadigan mazkur nufuzli musobaqa nafaqat qit'a g'olib va sovrindorlari, shu qatorda Parij Olimpiadasining Osiyo mintaqasi uchun ajratilgan yo'llanma sohiblarini ham aniqlab berishi bilan ahamiyatlidir.



Gap shundaki, chempionatning dastlabki uchta o'rnini egallagan jamoalar Olimpiya litsenziyasiga to'g'ridan-to'g'ri ega bo'ladi. To'rtinchi pog'onani qo'lga kiritgan mamlakat yoshlari esa Afrika qit'asi vakili — Gvineya olimpiya terma jamoasiga qarshi play-offda kuch sinashadi.

Qit'aning saralash bellashuvlarida g'olib chiqqan eng kuchli 16 ta terma jamoa qatnashadigan turnirda Temur Kapadze murabbiyligidagi O'zbekiston olimpiya terma jamoasi ham ishtirok etmoqda. Aytish mumkinki, futbolchilarimiz Osiyo kubogiga ortiqcha qiyinchiliksiz chiqdi. O'tgan yili yurtimizda tashkil qilingan saralash turnirida ular Afg'onistonni 8:1, Gonkongni 10:0 va Eronni 1:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Oltinchi bor o'tkazilayotgan chempionatning so'nggi uchtasida yarim finalga chiqqa olgan vakillarimiz 2018-yilda qo'lga kiritilgan chempionlik kabi bu gal ham yuqori natijani ko'zlayotgani aniq. Eng muhimi esa Olimpiya o'yinlari yo'llanmasiga sazovor bo'lish.

O'zbekiston olimpiya terma jamoasi musobaqaning "D" guruhidan o'rin olgan bo'lib, Vyetnam, Kuvayt va Malayziya kabi raqiblariga qarshi maydonga tushadi. T. Kapadze yoshlar o'rtasidagi qit'a birinchiligi FIFA kunlaridan tashqari uyushtirilayotgani bois yakuniy 23 talik tarkibga xorij klublarida to'p surayotgan bir qator legionerlarimiz — Abduqodir Husanov ("Lans"), Ibrohimxaliil Yo'ldoshev ("Qayrat"), Abbosbek Fayzullayev (SSKA), Hojimat Erkinov ("Al Vahda") ni jalb qilishda muammolarga duch kelayotgandi. Biroq muzokaralardan so'ng I. Yo'ldoshev, A. Fayzullayev va H. Erkinov musobaqa davomida terma jamoa ixtiyoriga yetib kelishi ma'lum bo'ldi. Birgina "Lans" himoyachisi A. Husanov masalasi hozircha ochiq turibdi. Ayni paytda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi rahbariyati va futbolchining agenti tomonidan "Lans" bilan muzokaralar olib borilyapti.

E'tiborlisi, terma jamoamiz tarkibida Jasur Jaloliddinov, Umarali Rahmonaliyev, Ruslanbek Jiyanov, Husayn Norchayev kabi xorij chempionatlarida tajriba to'plagan futbolchilar bor. Joriy turnir boshqa iste'dodli yosh o'yinchilarga o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun yaxshi imkoniyatdir.

Osiyo kubogining qolgan guruhleri quyidagicha ko'rinish olgan:

"A" guruhi: Qatar, Avstraliya, Iordaniya, Indoneziya.

"B" guruhi: Yaponiya, Koreya Respublikasi, BAA, Xitoy.

"S" guruhi: Saudiya Arabistoni, Iroq, Tailand, Tojikiston.

O'zbekiston olimpiya terma jamoasi musobaqani 17-aprel kuni malayziyalik tengqurlarga qarshi uchrashuv bilan boshlaydi. O'yin Toshkent vaqti bilan soat 18:30 da start oladi. 20-aprelda Kuvayt, 23-aprel kuni 3-tur doirasida Vyetnam olimpiya terma jamoalari bilan bellashishi ko'zda tutilgan. Mazkur ikki bahs soat 20:30 da boshlanadi.

Kecha "A" guruhida dastlabki ikki o'yin bo'lib o'tib, Avstraliya — Iordaniya 0:0, Qatar — Indoneziya 2:0 hisoblari qayd etildi.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi").

O'zbekiston Milliy axborot agentligi jamoasi O'zAning Qoraqalpog'iston axborot agentligi direktori Bahamdulla Nurabbullayevga onasi Amangul BIYSENBAY qizining vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-442. 14 540 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullig'a qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Masuhhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.20 Topshirildi — 03.20 1 2 3 4 5 6